

## FIZIKA FANINI O'QITISHDA O'ZIGA XOS JIHATLARI

*SHukurova Ra'no Abdullaeva*

*Toshkent viloyati, Piskent tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Fizika, astranomiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada fizika fanini o'quvchilarga o'quv predmetining mohiyatini ochib berish xamda ularda bilim malakalarini shakllanish xaqida muloxazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Tajriba, fizika fani, o'quvchilar, bilim malakalari, muammoli ta'lim.

Muammoli o'rganish – o'quvchilarning bilimlar va muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ifodalash va ularni yechish faoliyat usullarini, taxminlarni o'rtaga tashlash, asoslash va farazni isbotlash orqali o'zlashtirishi bo'yicha ijodiy, o'quv faoliyatining maxsus tuzilishi hisoblanadi.

Muammoli o'qitish deganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni o'rtaga qo'yish va ularni yechish bo'yicha o'quvchilarni faol, mustaqil faoliyatini ko'zda tutadigan va natijada ijodiy ravishda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari ijodiy egallangan hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tushuniladi.

Muammoli ta'limning o'ziga xos jihatlari:

- o'quv muammolari yechiladi;
- bilimlar ishonchli dalillarga aylanadi;
- o'quv jarayoni hayotiy voqe-a-hodisalar asosida tashkil etiladi;
- muntazam ravishda mustaqil ishslash;
- muammolar bilan yakka tartibda ishslash;
- qarama-qarshiliklardan iborat dinamizmning mavjudligi;
- o'quvchilarning emotsional faolligi;
- induktiv va deduktiv fikrlash usullaridan foydalaniladi.

Muammoli darsning vazifasi: maxsus fanlarning BKM larini egallash, o'quvchilarda aqliy amallar yani tahlil, sintez, analogiya, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni faollashtirish va rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirish, o'quvchilarni loyihali, tadqiqotli faoliyatga olib chiqish hisoblanadi.

Muammoli vaziyatni yechish metodlari: tadqiqotli, induktiv, deduktiv va tadqiqot va loyihalashtirishdan iborat.

Muammoli vaziyatni yechish vositalari:

- Tajriba
- Axborot bilan ishslash
- Kuzatish
- Modellashtirish

O'quvchilar bilan ishslash shakllari:

- Suhbat
- Ma'ruza
- Ekskursiya

- Labaratoriyalı tajriba
- Guruhda nazariy ishlash

Fizika fanidan dars olib boradigan o‘qituvchi o‘qitish mazmunini tushuntirishi, shu bilan birga tadqiqot metodlarini yaxshi egallagan bo‘lishi kerak. Muammoli vaziyat asosidagi o‘qitishda tashkilotchi rolida chiqaturib, o‘qituvchi o‘quvchilar uchun tayyor bilimlar manbasi, uni tashuvchisi va direktivi emas, balki ko‘proq rahbar va hamkor bo‘lishi mo‘ljallanadi. Fizika fani bo‘yicha muammoli darslarga tayyorlanish mobaynida o‘qituvchi:

1. o‘quvchilar duch keladigan vaziyatlarni muammoli ekanligini ziyraklik bilan sezishi va guruh oldiga o‘quvchilar tushunadigan holda maxsus fanga oid haqiqiy o‘quv masalalarini qo‘yishni bilishi;

2.o‘quvchilarni muammo va uni chuqur tadqiq etish jarayoniga jalb etishga, ijodiy fikrlayotgan o‘quvchilarni ustalik bilan qo‘yilgan savollar yordamida rag‘batlantirishga harakat qilish;

3.o‘qituvchi o‘quvchilarning shaxsiy yechimlarini topishda qilgan harakatlarida qo‘yib yuborgan xatolariga o‘zining yordamini taklif etgan holda chidam va toqatli

bo‘lish yoki o‘quvchilar o‘zlarining yechimini izlashlarida ishonchsizlik hosil qilayotgan paytlarda, ularni zarur axborot manbalariga yo‘llab yuborish kabi tajribalarini egallashi lozim.

Muammoli o‘qitish o‘quvchilarni o‘rab turgan borliqni bilish metodlari bilan qurollantiradi, maqsadga muvofiq kuzatish ko‘nikma va malakalarni rivojlantiradi, ularni asoslash orqali asosiy qonuniyatlarni umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyatlarini tarbiyalaydi, ularda mumkin bo‘lgan tadqiqot ishiga qiziqishni uyg‘otadi.

O‘quvchilar maxsus fanlardan o‘rganilgan holatlarning mohiyatini tezroq anglaydilar va asoslangan javoblar beradilar. Ularda maxsus fanga nisbatan bilish talablari va qiziqishlari rivojlanadi, maxsus fanlarga oid materiallarni egallahsha ularning bilish faoliyati faollashadi, kasbiy faoliyatga zarur bo‘lgan bilimlarni egallaydilar, bilimlarida ishonch va qat’iylik tarbiyalanadi, chunki farazlarni o‘rtaga o‘quvchilarning o‘zları tashlaydilar va o‘zları ularni isbotlaydilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekjanov D.A. O‘qitishda zamонавиу texnologiyalar. O‘quv qo’llanma. 2020.
2. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005.